



«TASDIQLAYMAN»

Sirdaryo viloyati statistika
boshqarma boshlig'i

U. Elmuratov

2025 y.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limining (keyingi o'rnlarda Bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 24-fevraldag'i PF-27-sun Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 24-fevraldag'i PQ-75-sun qaroriga muvofiq tashkil etilgan va viloyat statistika boshqarmasining tarkibiy bo'limi hisoblanadi.

3. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Milliy statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM – The Generic Statistical Business Process Model) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishning milliy modelining barcha bosqichlarida bevosita hamda bilvosita ishtirok etadi.

4. Bo'lim investitsiyalar va qurilish statistikasi masalalari bo'yicha faoliyatini Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparatining tarkibiy boshqarmalari, shahar va tumanlar statistika bo'limlari (keyingi o'rnlarda hududiy statistika organlari deb ataladi) bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini Statistika boshqarmasi boshlig‘i rahbarligida amalga oshiradi.

Bo‘lim o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha viloyat Statistika boshqarmasi boshlig‘i o‘rnbosariga bo‘ysunadi.

2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo‘yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:

Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, metodologik ishlarning reja-jadvali, Milliy statistika qo‘mitasining ish rejalarini o‘z vaqtida shakllantirilishida ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasi statistika tizimini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining ijrosini ta’minlash yuzasidan joriy va istiqbol rejalarini tayyorlashda ishtirok etish;

investitsiyalar va qurilish statistikasi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarning talablarini o‘rgangan holda istiqbolli maqsadlar va yo‘nalishlar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni joriy etib borish;

ishlab chiqiladigan me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihamiga takliflar ishlab chiqishda bo‘lim vakolati doirasidagi ishtirok etish;

makroiqtisodiy, tarmoq va hududiy darajalarda o‘rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qamrovini kengaytirishga qaratilgan investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishslashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish yo‘li bilan statistik kuzatuvlar tizimini umum qabul qilingan xalqaro amaliyotga yanada moslashtirib borish;

investitsiya va qurilish statistikasi nazariyasining yangi tendensiylarini va iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish, umumlashtirish va tahlil qilish, hamda ularni Milliy statistika qo‘mitasi bo‘linmalari tomonidan muhokama etilishini tashkil etish;

b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb

statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, metodologik ishlar reja-jadvalining investitsiyalar va qurilish statistikasi qismi bo'yicha bajarilishini ta'minlash;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashish, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

investitsiyalar va qurilish statistikasiga oid statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda, zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ish va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish;

investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning hisob-kitobini amalga oshirish hamda dastlabki statistik tahlilini olib borish;

investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha axborot-statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, yuritish va yangilab borish, foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga doir tushuntirishlar berish;

olingan statistika ma'lumotlarining mahfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslik, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarini himoya qilinishini ta'minlash;

hududiy statistika organlarining investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida profilaktika ishlarini tashkil qilish, hisobot va ijro intizomini ta'minlash bo'yicha choralarini amalga oshirish borasidagi faoliyati monitoringini yuritish;

umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha statistik metama'lumotlar tizimini yaratish va uni doimiy rivojlantirib borish;

tavsiya etilgan xalqaro standartlar asosida investitsiyalar va qurilish statistikasida sifatni boshqarish tizimini joriy etish va rivojlantirish;

v) *xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkorallagini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida.*

investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha tezkor va sifatli statistik ma'lumotlar tayyorlanishini ta'minlash;

milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasi uchun investitsiyalar va qurilish statistikasiga oid ko'rsatkichlarni maksimal darajada shaffofligi va oshkoraligni ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun investitsiyalar va qurilish faoliyatida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlash;

investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlarni statistika organlari, boshqa davlat organlari, xalqaro tashkilotlar nashrlarida joylashtirish uchun va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun keng imkoniyatlар yaratilishini ta'minlash;

investitsiyalar va qurilish statistikasiga oid statistik kuzatuvalar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirop etish;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, investitsiyalar va qurilish faoliyati bo'yicha asosiy statistik ko'rsatkichlarning takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlash;

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Statistika ishlari dasturi va Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha bajarilishini ta'minlaydi;

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan, sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO modellari asosida) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlash;

investitsiyalar va qurilish statistikasini istiqbolli rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, Statistika ishlari dasturining mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish, uning mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarida islohotlarning borishini tavsiflovchi tegishli maqsadli ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarda ishtirop etadi;

investitsiyalar va qurilish faoliyati bo'yicha statistika kuzatuvalari shakllarini ishlab chiqishda ishtirop etadi, statistik hisobot shakllaridagi bir-birini takrorlovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tugatishni, turli kuzatuv shakllarining mosligini

maqbullashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashni amalga oshiradi, idoraviy statistika kuzatuvarlari ekspertiza qilish va kelishishni ta'minlashda ishtirok etadi;

investitsiyalar va qurilish faoliyati bo'yicha statistik instrumentariyni ishlab chiqish va takomillashtirish hamda sifatni boshqarish tizimini joriy etish jarayonlarida ishtirok etadi;

"ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun investitsiyalar va qurilish faoliyatida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlaydi;

Boshqarma rahbariyatining topshiriqlari va foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

investitsiyalar va qurilish statistikasiga oid statistik kuzatuvarlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etadi;

investitsiyalar va qurilish statistikasi metodologiyasini xalqaro standartlar va rasmiy statistika prinsiplariga, jamiyat ehtiyojlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga mos kelishini ta'minlaydi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

statistika maqsadlari uchun zarur bo'lgan statistik klassifikatorlar va nomenklaturalarga o'zgartirishlar kiritish, xalqaro standart klassifikatorlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishini amalga oshirish ishlarida ishtirok etadi;

hududiy statistika organlariga va manfaatdor foydalanuvchilarga investitsiyalar va qurilish faoliyatiga taalluqli statistik klassifikatorlarni o'zlashtirishda metodik yordam va maslahat ko'rsatadi, ularni statistika amaliyotiga joriy etish ishlarida ishtirok etadi;

har oyda hududiy statistika organlari tomonidan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibiga amal qilinishi yuzasidan monitoring olib boradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo'yicha, zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida, takliflar tayyorlaydi;

Bo‘lim belgilangan tartibda o‘ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

3-bob. Bo‘limning huquqlari va javobgarligi

8. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Milliy statistika qo‘mitasi markaziy apparati bo‘linmalari va hududiy statistika organlaridan o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma’lumotlarni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

hududiy statistika bo‘limlari tomonidan investitsiyalar va qurilish statistikasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

investitsiyalar va qurilish statistikasiga oid statistika kuzatuvi shakllarini o‘zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, statistika kuzatuvlarini o‘tkazish usullari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo‘yicha takliflar berish;

bo‘limga yuklangan vazifalar, funksiyalar va statistik ishlarni bajarish maqsadida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, tashkilotlardan belgilangan tartibda ma’lumot va tushuntirishlar olish;

investitsiyalar va qurilish statistikasiga oid uslubiyot, statistik ishlar va rasmiy statistik ma’lumotlar yuzasidan axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

statistika ma’lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to‘g‘risida ko‘rsatmalar berish va yig‘ma statistika ma’lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, bo‘lim ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo‘yicha statistika boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

investitsiyalar va qurilish statistikasi kuzatuvlarini tashkil etish va uslubiyatini takomillashtirish bo‘yicha statistika boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

Bo‘lim vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha boshqarma bo‘limlari bilan hamkorlik qilish.

9. Bo‘lim quyidagilar uchun javobgar:

o‘ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga amal qilish, ilg‘or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanilayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo‘lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta’minlash.

4-bob. Bo‘limning tuzilmasi

10. Bo‘limning tuzilmasi o‘z ichiga :

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘yicha tarkibiga bo‘lim boshlig‘i, bosh mutaxassisi kiradi.

11. Bo‘lim va uning tarkibiga kiruvchi xodimlar ishiga bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi.

12. Bo‘lim boshlig‘i, bosh mutaxassisi statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

13. Investitsiyalar va qurilish yig‘ma tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

Investitsiyalar va qurilish faoliyatini rivojlantirish, Investitsiyalar va qurilish faoliyatida maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi bo‘yicha oylik, choraklik va yillik statistik hamda tahliliy malumotlarni tayyorlash va taqdim etish;

tahliliy jadvallar, press-relizlar, axborotnomalar va statistik to‘plamlarni tayyorlash, investitsiyalar va qurilish faoliyatini rivojlantirish masalalari bo‘yicha tashkilotlar savolnomalarini to‘ldirish;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun investitsiyalar va qurilish faoliyatida yuz berayotgan o‘zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma’lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlash;

Statistika boshqarmasi rahbariyatining topshiriqlari va foydalanuvchilarning so‘roylariga asosan investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘yicha ma’lumotlar tayyorlash;

investitsiyalar va qurilish faoliyati bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarning dinamik qatorlarini yuritish;

investitsiyalar va qurilish statistikasiga oid statistik kuzatuvlari va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etish;

investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha axborotlarini Statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar va muddatlarda yig'ish, qayta ishslash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop etish;

investitsiyalar va qurilish statistikasi axborotlarini shakllantirish masalalari bo'yicha hududiy organlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

investitsiyalar va qurilish statistikasi axborotlarini shakllantirish bo'yicha qabul qilingan uslubiy hujjatlarni amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash;

investitsiyalar va qurilish statistikasi axborotlarini elektron shaklda taqdim etish va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarini tashkil etish, bu yo'nalishda ishtirok etadi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, investitsiyalar va qurilish statistikasi asosiy ko'rsatkichlarining takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasini yuritish;

vazirlik va idoralarga investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha axborotlarni shakllantirishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

Ma'ruzalar, statistik to'plamlar uchun hamda investitsiyalar va qurilish statistikasi faoliyati jarayonlarini tavsiflovchi boshqa statistik ma'lumotlarni tayyorlaydi;

investitsiyalar va qurilish statistikasiga oid ma'lumotlarni shakllantirish, saqlash va tarqatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

5-bob. Bo'limning faoliyatini tashkil etish

14. Bo'limning ishi O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlari dastuvi, Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi to'g'risida nizom, mazkur Nizom, Milliy statistika qo'mitasi raisining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Statistika boshqarmasining ish rejalarini, bo'limning ish rejalarini va bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limning ish rejasi Statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlana'digan Statistika boshqarmasining ish rejalarini asosida shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

Bo‘lim xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari tegishli bo‘limga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda, bo‘lim boshlig‘i tomonidan tayyorlanadi va Statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

15. Bo‘lim boshlig‘i:

Bo‘limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, bosh mutaxassis va etakchi mutaxassisining ishini tashkil qiladi, bo‘limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo‘limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag‘batlantirish va jazolash choralar bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

Bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Statistika boshqarmasining yig‘ilishlari va majlislarida, shuningdek, Statistika boshqarmasi rahbariyatining topshirig‘iga binoan bo‘lim tasarrufiga kiruvchi masalalar bo‘yicha idoralararo ishchi guruqlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

Statistika boshqarmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq tahliliy va umumlashtiruvchi ma’lumotlarni tayyorlaydi, qo‘yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini ta’minlaydi;

investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘yicha uslubiy hujjatlarni qo‘llash bo‘yicha statistika bo‘lim boshliqlari va mutaxassislariga maslahat va uslubiy yordam ko‘rsatadi;

Statistika boshqarmasi va bo‘limning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tahliliy va boshqa materiallarni o‘z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta’minlaydi;

Bo‘lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnomalar berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o‘z vaqtida ijro etilishini qat’iy nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo‘yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta’minlaydi.

Bo‘lim boshlig‘i vaqtinchalik bo‘limgan taqdirda uning vazifasini bo‘lim bosh mutaxassisи bajaradi.

16. Bosh mutaxassis:

Mutaxassislar tomonidan ma’lumotnoma, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni sifatli va o‘z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi, shuningdek, bo‘limga tegishli masalalar bo‘yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o‘z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

Bo‘lim faoliyati samaradorligini tahlil qilish va uni oshirish bo‘yicha takliflar kiritadi, bo‘lim faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlashda ishtirok etadi;

Bo‘lim faoliyatini xalqaro tavsiyalar, shu jumladan, sifatni boshqarishning

milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO modellari asosida) hamda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalangan holda tashkil etadi;

Statistika boshqarmasining boshqa bo‘limlari darajasida hamda boshqa tashkilotlar (shaxslar) bilan uchrashuvda o‘z bo‘limi nomidan bo‘lim boshlig‘i yo‘qligida vakillik qiladi;

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va nashr qilishga tayyorlash, statistik kuzatuvlarning elektron ma’lumotlar bazasi saqlanishini va asosiy ko‘rsatkichlar dinamik qatorlarining doimiy yuritilishini tashkil qiladi;

Bo‘lim xodimlari tomonidan tayyorlanayotgan statistik ma’lumotlar asosida turli tahliliy sharhlar tayyorlashda ishtirok etadi;

Bo‘lim faoliyatiga tegishli bo‘lgan me’yoriy-huquqiy, uslubiy hujjatlarni tayyorlash; kelishish va tasdiqlash uchun kiritish ishlarini tashkillashtiradi; soha bo‘yicha byulletenlar, to‘plamlar, ma’ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma’lumotlar tayyorlaydi;

soha bo‘yicha byulletenlar, to‘plamlar, ma’ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma’lumotlar tayyorlaydi;

soha bo‘yicha statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so‘rovnomalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

soha bo‘yicha asosiy statistik ko‘rsatkichlarning dinamik qatorlarini yuritadi va doimiy ravishda yangilab boradi;

statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishslash, saqlash va taqdim etish bo‘yicha dasturiy ta’minotlarni sinovdan o‘tkazishda ishtirok etadi;

statistik ma’lumotlarni sharhslash, statistik kuzatuv blankalarini to‘ldirish masalalari, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishslash uslublari, statistik hisob-kitoblar

o‘tkazish, olingan ma’lumotlarning ishonchlilagini tekshirish bo‘yicha maslahatlar beradi;

statistik kuzatuvalar va hisob-kitoblarni o‘tkazish bo‘yicha ishlar hajmini batafsil baholash uchun zarur materiallarni hamda statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim yetish bo‘yicha dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun texnik topshiriqlar tayyorlanishini nazorat qiladi;

Bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan, elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni, ko‘rib chiqilishini (zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida) tashkil qiladi, ularda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilish bo‘yicha loyihasini tayyorlaydi va Statistika boshqarmasi rahbariyatiga kiritadi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Bo‘lim bosh mutaxassisini vaqtinchalik bo‘limgan taqdirda uning vazifasini bo‘lim boshlig‘i bajaradi.